

USMON NOSIR SHE`RIYATINING “BOG`BON”I

Mirzarahimova Hilola Raimovna

*O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litsey ona tili va adabiyot
fani o`qituvchisi*

O`zbek adabiyotida juda yoshlik chog`laridayoq yorqin fikrlari, o`tkir tasvir ifodasi bilan ijod ahlini o`ziga mahliyo qilganlar juda kam topiladi.

Bor-yo`g`i 32 yil umr ko`rib, she`riyat osmonida momoqalldiroqdek guldirab, chaqmoqdek chaqnab, ming-minglab yuraklarda o`z qalb tug`yonlarini muhrlab ketgan, umri , darhaqiqat, “chaqmoq umri`ga qiyoslanayotgan zabardast o`zbek shoiri, anglayotganingizdek, Usmon Nosirdir.

Qo`limda varaqlayotganim, uning “Unutmas meni bog`im” to`plami.

Varaqlayveraman... Sahifalar tilga kiradi , ko`z o`ngimda ulug` shoir :

Sevgi! Sening shirin tilingdan

Kim o`pmagan, kim tishlamagan?

Darding yoydek tilib ko`ksidan,

Kim qalbidan qonlar to`kmagan?-1.- satrlari bilan sevgiga oshno sohir qalb sohibi;

Tingla, erkam, o`rtog`imsan, Ko`nglimni ochay.

Qonim she`r bo`lib oqsin-da,

Men qayta ichay-2,-misralarida she`riyat shaydosi; Tinglaysanmi, temir qadamlarni?

Eh, qanday ko`p, oldingdagi to`p!

Yugur, Qichqir!Bermagin damlarni,

Sevin, sevintirgin, degin xo`p.. “Senga, singlim” she`rida aka obrazi;

Onajonim, sog` bo`lsang Sevinchim mening.

O`zim har joyda, dilimda-

Mehring o`ti sening,3 - she`rida qobil farzand; Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo`lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli , tamom o`lsam!4.. – misralarida sadoqat sohibi;

Gulzor-chaman. Yur , bog`larga Eltay yetaklab.

Binafshalar terib beray

Senga etaklab5...- misralarida qalbi muhabbat otashi bilan to`liq oshiq yigit;

Bargdek uzilib ketsam, Unutmas meni bog`im.

Ishimni hurmat qilur,

Gullardan haykal qurur,

Ming yillardan keyin ham

Unutmas meni bo`gim6,- satrlarini o`qiganimda mohir she`riyat qiroli –“bog`bon” timsollarida namoyon bo`ladi.

Yigirma bir yoshli mag`rur yigitning bu qadar o`tli, otashnafas satrlar bitishi juda hayratlanarli... Hali 30-yillardayoq Dante, Shekspir, Pushkin asarlari qahramonlari nomini

she`rlarida talmeh badiiy san`at vositasi sifatida qo`llay olishi chindan-da hayratlanarli edi. Bu haqda O`zbekiston xalq shoiri Shukrullo U.Nosirni xotirlab, uning :

Balki guldan yaralgan pari Toshko`ngilli Biatriche: -Gadosan,- deb qochmasa nari,

Dante baxtli bo`lardi picha!7- satrlarini keltirar ekan : “Bu asarlar xayoliga tasodifan kelganmi? Qachon u Dantenı o`rganishga ulgurdi? Faqat u Dantenı emas, qanday qilib

Shekspirni tanidi!”- deganida bu ulug` ijod sohibi salohiyatiga o`z bahosini berib qo`yadi.

U.Nosir she`rlarida hayotga tashnalik, orzu-havaslariga erishish yo`lida tinibtinchimaslik xususiyatlari ustuvorlik qiladi. “Birinci xat” she`rida u qahramoni tilidan:

“... Shunday bo`larmikan? O`yim chuvaldi.

Qani ota bo`lsam, o`g`lim bo`lsa-yu

Yurak jonivorim behol uvaldi , ”- deya “nola” qiladi.

O`z ijodida she`rni, she`riyatni erkalab yozgan shoirlar ichida hech kim she`riyatni U. Nosirchalik sevib, alqamagan, desak, mubolag`a bo`lmas: “Lirika! Lirikam, O`yna , ko`lkalan, Ko`lkalan yurakning pokiza nayil! ”, ”She`rim , yana o`zing yaxshisan”, yoki “Yana ko`nglimda erka bir shodlik, Yana tilimda sevgili she`rim”... , umuman , shoirning ijodida bu kabi misralarini ko`plab uchratish mumkin. Shu sababdanmi, shoirning she`rlari qaysi vaznda yozilmasin, o`ynoqi, juda ko`tarinki kayfiyatda, U.Nosirgagina xos bo`lgan shijoat bilan yozilgan:

Shu chog`dagi yuragimni tinglangiz hoy, hu... Aks-sadosi gumburlaydi go`yo zambarak.

Sezgilarning bebozori-menimcha-tuyg`u

Menga shodlik va gullarning lablari kerak!8-deb qalbi hayajondan titragan shoir yana bir she`riga shunday satrlarni bitadi: Ko`z tutdim, ko`zlarim nigoron bo`ldi; O, dilbar simbarim yuzlari qirmiz.

Kiprigi ko`ksiga soya solgan qiz,

Ko`z tutdim, yuragim to`la qon bo`ldi9...

Angalayotganingizdek, U. Nosir she`rlarida o`zgacha bir ohang, o`zgacha bir ruh, hali hech kim chekmagan, balki cheksa ham e`tirof etmagan bir dard bor. Shundanmi, bunga uning o`zi ba`zida iqrar bo`lib:

Senga tor keldi bu ko`krak,

Sevinching toshdi qirg`oqdan.

Tilim charchar, ajab, gohi

Seni tarjima qilmoqdan10,-deb o`z yuragini “koyib” qo`yadi. Shunisi bizning yuragimizni qonga to`ldirganki, U.Nosir zulm va adolatsizlik hukm surgan davrda, mamlakatda yashadi. “Eng dahshatli sukunat-shoir jim tursa”,-degan taniqli shoir

X. Davron e`tirofiga suyanib, U.Nosirning “jim” turmagani guvohi bo`lamiz:

Yo`lchiman, manzilim dengizdan nari, Lojuvard ufqning tubiga yaqin. Ko`nglimda dardlarim daryodek oqin, Chayqalar ko`zlarim tikilgan sari.

O, yo`llar!11

Ushbu satrlarni o`qib, nechun favqulodda iqtidor va iste`dod sohibi bo`lgan, o`z tengqurlaridan ancha-muncha olgarilab ketgan shoirning yetar manzili munchalar uzoq-

“dengizdan nari?” Nechun ayni umrining gullab –yashnagan, ijodining “qaynagan”, bilagining kuchga toʻlgan pallasida murodiga eltuvchi ulovi- “qora yoʻrgʻa?!”

Ha, guvohmiz! “Qora yoʻrgʻa” shoirni oʻzi istagan manzilga emas, qahraton Kemerevo sari yetakladi va shafqatsiz taqdir Oʻzbekiston xalq shoir Shukrullo taʼrifi bilan aytganda oʻz ishini qildi : “goʻdakni ona bagʻridan yulib olganday” endi 32 yoshni qarshilagan Usmonni ham u sevgan hayotidan, Vatanidan, “saharda qon tupurishga”-da rozi boʻlgan sevimli sheʼriyatidan olib ketdi... U. Nosir sheʼrlaridan birida : Sen yuragimning chashma suvisan, Sen koʻzlarimning gavhar nurlari.

Sening bahongni kim soʻrasa, de,

“Bahom-umring bahosiga teng”¹², -deb oʻz ijodini umri bahosiga qiyos qilgan edi.

Zero, uning sheʼrlari yurak qoni bilan bitilgan edi.

Sheʼrlarim yangrab qolur... Bir umrga oʻlmayman!

Hayotimning davomi-

Kelajagimga homiy,

Oʻrnimga bogʻbon boʻlur:

Bir umrga oʻlmayman!¹⁴ deya bitganida shoir endigina 23 yoshni qarshilagan edi. Ana shunday yoshda “ikkinchi hayot”iga kafolat bergan shoir, darhaqiqat, oʻlmaydi. Garchi u barpo etgan bogʻ hali uzoq yillar meva beradi, uning sheʼrlari esa “bogʻbon” boʻlib, bu boʻg parvarishidan sira tolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

- 1.Usmon Nosir . Monolog sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 2.Usmon Nosir . “Gulzor-chaman...”sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 3.Usmon Nosir . “Oq yuvib-oq tarab...” sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 4.Usmon Nosir . Yurak Unutmas meni bogʻim. T.:1988
5. Usmon Nosir . Bogʻim sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 6.Usmon Nosir . Bogʻim sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 7.Usmon Nosir . Monolog sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 8.Usmon Nosir . “Qushcha kabi...” sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 9.Usmon Nosir . “Naxshon...”dostoni. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 10.Usmon Nosir . Yurak sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 11.Usmon Nosir . Yoʻlchi sheʼri Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 12.Usmon Nosir . Sheʼrim sheʼri Unutmas meni bogʻim. T.:1988
- 13.Usmon Nosir . Bogʻim sheʼri. Unutmas meni bogʻim. T.:1988